

**IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR ALLOCATING LAND FOR LARGE INVESTMENT PROJECTS IN THE CONDITIONS OF CLUSTER ECONOMY****Karimova Nilufar Sadridin kizi**

Acting Associate Professor of TDIU

[nilufarkaramilova1013@gmail.com](mailto:nilufarkaramilova1013@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.20353372>**KLASTER IQTISODIYOTI SHAROITIDA YIRIK INVESTITSIYA LOYIHALARIGA YER AJRATISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH****Karimova Nilufar Sadridin kizi**

TDIU v.b dotsenti

[nilufarkarimova1013@gmail.com](mailto:nilufarkarimova1013@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-huquqiy va institutsional asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda investitsion faoliyatni rivojlantirishda yer resurslaridan samarali foydalanish, hududiy iqtisodiy salohiyatni oshirish hamda klaster tizimida yer munosabatlarini tartibga solishning zamonaviy yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yer ajratish amaliyotida uchrayotgan byurokratik to'siqlar, huquqiy noaniqliklar va institutsional muammolarning investitsion muhit barqarorligiga ta'siri baholangan. Maqolada xorijiy davlatlar tajribasi asosida yer ajratish jarayonlarini raqamlashtirish, elektron platformalar orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, yer resurslarini iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida taqsimlash hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida klaster iqtisodiyoti sharoitida investitsion jozibadorlikni oshirish, hududlar iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Annotation.** This article examines the theoretical, legal, and institutional foundations for improving land allocation mechanisms for large-scale investment projects within the framework of cluster economy development. The study scientifically analyzes the effective use of land resources in enhancing investment activity, increasing regional economic potential, and regulating land relations under cluster-based economic systems. Furthermore, the research evaluates the impact of bureaucratic barriers, legal uncertainties, and institutional constraints arising in the process of land allocation for major investment projects on the stability of the investment environment.

The article also highlights priority directions for digitalizing land allocation procedures, ensuring transparency through electronic platforms, allocating land resources based on economic efficiency criteria, and expanding public-private partnership mechanisms by considering advanced foreign practices. As a result of the research, scientific and practical recommendations aimed at increasing investment attractiveness, accelerating regional economic development, and ensuring rational use of land resources in cluster economy conditions have been developed.

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретико-правовые и институциональные основы совершенствования механизмов выделения земельных участков для крупных инвестиционных проектов в условиях кластерной экономики. В исследовании с научной точки зрения проанализированы вопросы эффективного использования земельных ресурсов в развитии инвестиционной деятельности, повышения регионального экономического потенциала, а также современные подходы к регулированию земельных

отношений в кластерной системе хозяйствования. Кроме того, дана оценка влиянию бюрократических барьеров, правовых неопределённостей и институциональных проблем, возникающих в процессе выделения земельных участков для реализации крупных инвестиционных проектов, на устойчивость инвестиционного климата.

В статье также освещены приоритетные направления цифровизации процессов выделения земельных участков, обеспечения открытости и прозрачности посредством электронных платформ, распределения земельных ресурсов на основе критериев экономической эффективности, а также расширения механизмов государственно-частного партнёрства с учётом передового зарубежного опыта. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на повышение инвестиционной привлекательности, ускорение регионального экономического развития и рациональное использование земельных ресурсов в условиях кластерной экономики.

**Kalit so'zlar:** klaster iqtisodiyoti, investitsiya loyihalari, yer ajratish mexanizmi, investitsion muhit, hududiy rivojlanish, yer resurslari, raqamlashtirish, institutsional islohotlar, davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiy samaradorlik.

**Ключевые слова:** кластерная экономика, инвестиционные проекты, механизм выделения земель, инвестиционный климат, региональное развитие, земельные ресурсы, цифровизация, институциональные реформы, государственно-частное партнёрство, экономическая эффективность.

**Keywords:** cluster economy, investment projects, land allocation mechanism, investment environment, regional development, land resources, digitalization, institutional reforms, public-private partnership, economic efficiency.

**Kirish (Introduction).** Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya jarayonlari sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash investitsion faollikni oshirish hamda hududiy resurslardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, klaster iqtisodiyoti modeli ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, xizmat ko'rsatish va innovatsion faoliyatning o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning zamonaviy institutsional mexanizmi sifatida shakllanmoqda. Shu sababli yirik investitsiya loyihalarini hududlar kesimida oqilona joylashtirish, ular uchun zarur infratuzilma yaratish hamda yer resurslarini iqtisodiy manfaatdorlik asosida taqsimlash masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni yanada yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yer munosabatlarini bozor tamoyillari asosida tartibga solishga qaratilgan keng ko'lamlı institutsional islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yer resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilishga oid farmon va qarorlarida yer ajratish jarayonlarini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, elektron platformalar orqali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda byurokratik to'siqlarni qisqartirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Xususan, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi"da hududlarda sanoat va agrosanoat klasterlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmini oshirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Mazkur strategik yondashuv hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini institutsional jihatdan takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltirmogda.

Shuningdek, yer ajratish amaliyotida uchrayotgan ayrim tizimli muammolar, jumladan, huquqiy tartib-taomillarning murakkabligi, turli idoralar o'rtasidagi muvofiqlashtirish darajasining yetarli emasligi, infratuzilma bilan bog'liq cheklovlar hamda ayrim hollarda inson omili bilan bog'liq xavflar investitsiya loyihalarining amalga oshirish muddatiga salbiy ta'sir

ko'rsatmoqda. Natijada investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun yer ajratish tizimini raqamlashtirish, institutsional boshqaruvni optimallashtirish va xalqaro tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish zarurati kuchaymoqda.

Mazkur maqolada klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yer resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari, investitsion jarayonlarni institutsional tartibga solish mexanizmlari hamda yer ajratish tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri o'rganilib, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Umuman olganda, qishloq xo'jaligi klasterlarining amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutgan holda quyidagi adabiyotlar, misol uchun klasterlar nazariyasi rus olimlari klasterga oid ilmiy tadqiqot ishlari horijlik olimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan keng o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, J.Ashenbroyx, S.Aleksandr, A.Barabolina, V.Baburin, I.Bortnik, S.Zemtsov, V.Tarassenko<sup>1</sup>lar tomonidan muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, paxta to'qimachilik klasterining mohiyati, uni rivojlantirish masalalari O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, professor M. Rahmatovning "Yangi O'zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida" nomli kitobida bu klasterlarni tashkil etish, ularni rivojlantirish hamda moliyalashtirish mexanizmlari haqida masalalar yoritilgan.

O'zbekistonda paxta to'qimachilik klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar "Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o'sish" risolasi tomonidan ko'rsatib bergan.

Bu kabi ilmiy tadqiqot ishlarini ilmiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, klasterlar faoliyatini rivojlantirishda moliyalashtirish masalalari va muommolari hamda ularda qo'llaniladigan usullar tahlillar masalalariga kengroq urg'u berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'zbekistonda keyingi yillarda hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion faollikni kengaytirish hamda ilg'or infratuzilmaviy tizimlarni shakllantirish jarayonida klaster iqtisodiyoti modelini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yirik investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirishda yer resurslarini oqilona taqsimlash, hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda investitsion muhit jozibadorligini oshirish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirishning iqtisodiy-huquqiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish bir qator zamonaviy tadqiqot metodologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, nazariy mushohada va mantiqiy yondashuv asosida klaster iqtisodiyotida yer resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati, investitsiya loyihalarini hududiy joylashtirish mexanizmlari hamda yer ajratish tizimining institutsional xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Mazkur yondashuv asosida mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining ilmiy-nazariy qarashlari umumlashtirish va guruhlashtirish metodlari orqali tizimlashtirildi. Bundan tashqari, mantiqiy-taqqoslama, abstrakt-mantiqiy fikrlash hamda statistik tahlil usullarini qo'llash orqali xorijiy davlatlar tajribasi bilan milliy amaliyot o'rtasidagi farqli jihatlar o'rganildi. Kompleks iqtisodiy

<sup>1</sup> Н.Руднева Опыт создания структурированных кластеров в развитых странах (Электронный ресурс)// Скоп, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)//Режим доступа. Куценко Е.С. (Становление инновационных кластеров в России: итоги первых лет поддержки // Инновации. 2015. № 7. С., Ф.Моисей, Славянова Светлана (Клстер номер один//Эксперт Юг № 48 (137), 2010), С.Соколино О кластеризации в странах ОЧЭС (Электронный ресурс)// Режим доступа:<http://www.ucci.org.ua>, Владислав Тарасенко (Территориальные кластеры: Семь инструментов управления. — М.: Альпина Паблишер, 2015. — 201 с.

tahlillar asosida klaster iqtisodiyoti sharoitida yer ajratish mexanizmlarini raqamlashtirish, institutsional boshqaruv samaradorligini oshirish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirishda byurokratik to'siqlarni qisqartirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlil (Analysis).** So'nggi yillarda O'zbekistonda yer munosabatlarini bozor tamoyillari asosida tartibga solish, investitsion muhitni yaxshilash hamda klaster iqtisodiyoti mexanizmlarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va sanoat sohalarida yirik investitsiya loyihalarining hududiy samaradorligini oshirish maqsadida yer resurslarini ajratish tizimini takomillashtirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mazkur jarayonlar yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda investitsiya faoliyatini rag'batlantirish, hududlarda sanoatlashtirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish hamda eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, avvalgi yillarda yer ajratish amaliyotida byurokratik tartib-taomillarning murakkabligi, yer uchastkalarini realizatsiya qilishdagi uzoq muddatlilik, ayrim hollarda inson omilining yuqoriligi va elektron boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi investitsion loyihalarning amalga oshirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli yer munosabatlarini liberallashtirish hamda ochiq bozor mexanizmlarini joriy etish zarurati yuzaga kelgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini ajratish tizimini takomillashtirishga oid farmonida yer uchastkalarini elektron onlayn auksion savdolari orqali ajratish, investorlar uchun teng va shaffof sharoit yaratish, yer resurslaridan foydalanishda iqtisodiy manfaatdorlikni kuchaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan klaster loyihalarini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi qayd etilgan. Mazkur normativ-huquqiy yondashuv asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarini yangi tizim asosida realizatsiya qilish mexanizmlarining joriy etilishi investitsion jarayonlarni jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 50 gektardan 500 gektargacha bo'lgan yer maydonlarini sanoat usulidagi plantatsiyalar va yirik investitsiya loyihalari uchun ajratish amaliyoti hududiy iqtisodiy ixtisoslashuvni kuchaytirish hamda klaster infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shuningdek, yer uchastkalarining elektron auksionlar orqali realizatsiya qilinishi korrupsion xavflarni kamaytirish, yer bozorida raqobat muhitini shakllantirish hamda investorlarga teng imkoniyat yaratishda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra, yer uchastkalarining boshlang'ich narxlarini bosqichma-bosqich pasaytirish tizimi uzoq muddat realizatsiya qilinmagan yer maydonlarini iqtisodiy aylanishga kiritish imkonini bermoqda. Natijada bo'sh turgan yer resurslarini investitsion loyihalarga jalb etish orqali hududlarda yangi ish o'rinlari yaratish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari kengaymoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda infratuzilmaviy ta'minot muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli suv ta'minoti og'ir bo'lgan yoki foydalanishdan chiqqan yer maydonlarini qayta o'zlashtirish, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish hamda elektr energiyasi ta'minotini yaxshilashga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilishi investitsion faollikni oshirishda muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, qiymati kamida 10 million AQSH dollariga teng bo'lgan yirik investitsiya loyihalari uchun yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri uzoq muddatli ijara asosida ajratish mexanizmi strategik investorlarni jalb qilishda muhim institutsional vosita sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur tizim investorlarga uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bilan birga, yer resurslaridan samarali foydalanish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, xorijiy investorlar uchun yer uchastkalarini ikkilamchi ijara asosida ajratish mexanizmlarining joriy etilishi milliy manfaatlarni himoya qilish bilan bir qatorda

investitsion jarayonlarni tartibga solishning muvozanatli modelini shakllantirmoqda. Mazkur yondashuv yer resurslari ustidan davlat nazoratini saqlab qolish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishning o'zaro uyg'unlashgan institutsional modelini yuzaga keltirmoqda. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirish hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarishlarni kengaytirishda muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Shu sababli yer ajratish tizimini to'liq raqamlashtirish, elektron monitoring mexanizmlarini kuchaytirish va institutsional boshqaruv samaradorligini oshirish kelgusidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

**Muhokama (Discussion).** Klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki hududiy rivojlanishning institutsional barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda yer resurslari ishlab chiqarish omillarining strategik tarkibiy qismi sifatida investitsion jarayonlarning intensivligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli yer ajratish tizimining ochiqligi, tezkorligi va iqtisodiy manfaatdorlik asosida tashkil etilishi investitsion muhit sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yer munosabatlarini tartibga solish jarayonlari asosan raqamli boshqaruv tizimlari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy va Niderlandiya kabi davlatlarda yer uchastkalarini elektron platformalar orqali ajratish, geoinformatsion tizimlardan foydalanish hamda yer monitoringini sun'iy yo'ldosh texnologiyalari asosida yuritish investitsion loyihalarni amalga oshirish muddatini sezilarli darajada qisqartirgan. Natijada investorlarning ma'muriy xarajatlari kamayib, hududiy iqtisodiy faollik oshgan. Ayniqsa, Xitoy tajribasida sanoat klasterlarini rivojlantirishda yer resurslarini markazlashgan holda boshqarish va uzoq muddatli ijara mexanizmlaridan foydalanish sanoat ishlab chiqarishining hududiy konsentratsiyasini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ushbu tajriba klaster infratuzilmasi shakllanishida yer resurslarining strategik boshqaruvi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham hududiy ixtisoslashuv asosida agrosanoat va sanoat klasterlarini rivojlantirish jarayonida mazkur yondashuvlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirishda faqat huquqiy islohotlarning o'zi yetarli emas. Mazkur tizimni samarali ishlashi uchun yer kadastri ma'lumotlarini to'liq raqamlashtirish, davlat organlari o'rtasida integratsiyalashgan elektron platformalarni joriy etish hamda investorlarga "yagona darcha" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish zarur hisoblanadi. Chunki investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida vaqt omili eng muhim iqtisodiy resurslardan biri bo'lib, ortiqcha ma'muriy kechikishlar investitsion xarajatlarning oshishiga olib keladi. Shuningdek, yer ajratish tizimida ekologik barqarorlik masalalariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki yirik investitsiya loyihalarining hududiy joylashuvi tabiiy resurslardan foydalanish intensivligiga, suv ta'minotiga hamda ekologik muvozanatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli yer resurslarini ajratishda ekologik audit, suv resurslari ta'minoti va agroekologik monitoring tizimlarini joriy etish investitsion faoliyatning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, klaster iqtisodiyoti sharoitida yer ajratish mexanizmlarining samaradorligi moliyaviy infratuzilma bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki yirik investitsiya loyihalarining aksariyati uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni talab qiladi. Shu sababli yer uchastkalariga bo'lgan uzoq muddatli ijara huquqlarining investitsion aktiv sifatida bank-moliya tizimida tan olinishi investorlarning kredit resurslariga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa klaster infratuzilmasining rivojlanishi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, hududiy boshqaruv organlari va investorlar o'rtasidagi institutsional hamkorlik darajasi ham yer ajratish mexanizmlarining natijadorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mahalliy hokimliklar, kadastr organlari, investitsiya va qishloq xo'jaligi tizimlari faoliyatini o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish, qaror qabul qilish jarayonlarida iqtisodiy tahlil va prognozlash mexanizmlaridan keng foydalanish zarur hisoblanadi.

### **Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations)**

Xulosa qilib aytganda, klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim institutsional omillardan biri hisoblanadi. Yer resurslarini iqtisodiy manfaatdorlik, ochiqlik va bozor tamoyillari asosida boshqarish investitsion muhit jozibadorligini oshirish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega ishlab chiqarishlarni rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, klaster tizimining shakllanishi yer resurslaridan kompleks va samarali foydalanish, ishlab chiqarish zanjirlarini integratsiyalash hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim iqtisodiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yer ajratish tizimida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarga qaramasdan, ayrim hududlarda ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi, raqamli infratuzilmaning yetarli rivojlanmaganligi, davlat organlari o'rtasidagi axborot almashinuvi samaradorligining pastligi hamda infratuzilmaviy cheklovlar investitsiya loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois yer munosabatlarini boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va boshqaruvning integratsiyalashgan modelini shakllantirish zarurati ortib bormoqda.

Shuningdek, tahlillar yirik investitsiya loyihalariga yer ajratishda uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va hududiy ixtisoslashuv omillarini hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatdi. Chunki yer resurslaridan noto'g'ri foydalanish kelgusida ekologik muammolar, suv taqchilligi va iqtisodiy samarasizlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirishda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish hamda barcha davlat organlarini yagona elektron platformaga integratsiyalash;
- yer uchastkalarini ajratishda “yagona darcha” tamoyilini keng joriy etish orqali ma'muriy tartib-taomillar muddatini qisqartirish;
- klaster loyihalari uchun ajratiladigan yer maydonlarini hududiy iqtisodiy ixtisoslashuv va infratuzilmaviy salohiyat asosida tanlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- yer resurslaridan foydalanish samaradorligini sun'iy yo'ldosh monitoringi va geoinformatsion tizimlar orqali doimiy nazorat qilish;
- uzoq muddatli ijara huquqlarining moliyaviy aktiv sifatidagi maqomini kuchaytirish orqali investorlarning kredit resurslariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- suv ta'minoti og'ir hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun davlat-xususiy sheriklik asosida irrigatsiya va infratuzilma loyihalarini rivojlantirish;
- yer ajratish tizimida ekologik audit va agroekologik ekspertiza mexanizmlarini majburiy tartibda joriy etish;
- hududiy hokimliklar, kadastr organlari va investitsiya tizimlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni kuchaytirish hamda qaror qabul qilishda iqtisodiy prognozlash usullaridan foydalanishni kengaytirish.

Umuman olganda, klaster iqtisodiyoti sharoitida yirik investitsiya loyihalariga yer ajratish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasini jadallashtirish, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni

kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

#### **Foydaniilgan adabiyotlar tahlili**

1. “ O‘zbekiston respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 23.10.2019 yildagi PF-5853-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 28-iyulda PQ-5200 sonli “Uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan , 2023-yil 3-avgustda PQ-260 “2023–2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 16.11.2021 yildagi PF-14 son
5. A.Marshall,principles of Economics,1890.
6. Murtazo Axmedovich Rahmatovning “Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida”T:” Zamin nashr” 2021,212b
7. M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar “Klaster-integratsiya innovatsiya va iqtisodiy o‘shish” risolasi T:”Zamin nashr”2018
8. “Klasterlar va fermer xo‘jaliklarida strategik boshqaruv hisobi va tahlilning metodologik masalalari” Xasanov Bahodir Akramovich, Nurmanov Karjaubay.”Lesson Press” T 2022
9. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
10. [www.Stat.uz](http://www.Stat.uz)